Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · "Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlarini t... DOI: 10.5281/zenodo.24320744

ta'minlashning ustivor yo'nalishlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

Shu bilan birga, barqaror rivojlanish nazariyasi qoidalaridan amaliy foydalanishga alohida e'tibor qaratish lozim. Atrof-muhitni boshqarishni amalga oshirish jarayoniga ta'sir qiluvchi omillar orasida (mahsulot xususiyatlari, ishlab chiqarish va texnologik jarayonlar; mamlakatning ekologik qonunchiligidan talablar; jamoatchilikning pozitsiyasi) kompaniya menejerlari va uning xodimlarining barqaror rivojlanish tamoyillari asosida ishlashga tayyorligiga alohida e'tibor qaratish lozim;

Iqtisodiy rivojlanishning atrof muhitga muvofiqligini ta'minlash, shuningdek, ijtimoiy-ekologik va iqtisodiy tartibga solishni joriy etish milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga o'tish konsepsiyasining yadrosiga aylanishi mumkin. Atrof muhitga mos keladigan iqtisodiy rivojlanish nazariyasini ishlab chiqish va uni amalga oshirish ancha vaqt talab etadi. Ammo zamonaviy sharoitda XXI-asrda iqtisodiy samaradorlikning eng muhim sharti sifatida iqtisodiy faoliyatni izchil ko'kalamzorlashtirish bo'lgan ilmiy va amaliy faoliyatning o'ziga xos shaklini aniqlash kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ""O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son. https://lex.uz/docs/-6600413
2. Вайцзеккер, Э., Ловинс, Э., & Ловинс, Л. (2000). Фактор четыре. Затрат-половина, отдача-двойная. Новый доклад Римскому клубу. М.: Academia.
3. Kholmirzayeva, M. (2022). ENSURING SUSTAINABLE DEVELOPMENT THE ROLE OF" GREEN ECONOMY". Science and Innovation, 1(3), 301-304.
4. Михайлов, К. Л., & Михайлова, Г. В. (2007). Экологизация производства как основа формирования конкурентного бренда. Экология человека, (10), 10-15.
5. Lobar, M. (2023). O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI. Innovation: The journal of Social Sciences and Researches, 1(6), 207-210.

ISHLAB CHIQARISH VA MOLIYAVIY SAVODXONLIK INTEGRATSIYASI

I.M. Mo'ydinov
Farg'ona politexnika instituti "Oliy matematika" kafedrasi o'qituvchisi
ilhommuydinov887@gmail.com

Anotatsiya. Mazkur maqolada ilm-fan, ta'lim, ishlab chiqarish va moliyaviy savodxonlikning o'zaro integratsiyasi va uning zamonaviy jamiyat rivojlanishidagi ahamiyati tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: ilm-fan, ta'lim, ishlab chiqarish, moliyaviy savodxonlik, integratsiya, iqtisodiy rivojlanish.

Zamonaviy jamiyatning rivojlantirish yo'li. Zamonaviy dunyoda muvaffaqiyatga erishish uchun ilm-fan, ta'lim, ishlab chiqarish va moliyaviy savodxonlikning birgalikda ishlashini ta'minlash zarur. Bu to'rt omilning integratsiyasi shaxsiy, korporativ va milliy miqyosda iqtisodiy o'sish, intelektual salohiyatning ortishi va barqaror jamiyat shakllanishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Integratsiya-bu turli yo'nalishlarning hamkorligi va bir-birini to'ldirishi natijasida yangi imkoniyatlar va natijalarga erishish demakdir. Bunda ilm-fan, ta'lim, ishlab

Published: 23.12.2024
Cite this article: I.M. Mo'ydinov (2024). Ishlab chiqarish va moliyaviy savodxonlik integratsiyasi. Emro Science and Education, 1(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.24320744
© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

chiqarish va moliyaviy savodxonlikning hamkorlikda rivojlanishi jamiyatni innovatsion, raqobatbardosh va moliyaviy jihatdan barqaror qilishida asosiy o‘rin tutadi. Quyidagi ushbu to‘rt omilning integratsiyasi va uning afzalliklari haqida batafsil fikr yuritamiz.

Ilm-fan va innovatsiyalar. Ilm-fan – bu jamiyatning texnologik va iqtisodiy rivojlanishining tayanchi. Yangi texnologiyalar, zamonaviy ilmiy kashfiyotlar va innovatsion ishlanmalar ishlab chiqarish va kundalik hayotda foydalanilayotgan jarayonlarni tubdan o‘zgartiradi. Masalan, hozirgi kunda texnologik innovatsiyalar ko‘plab sohalarda, jumladan, tibbiyot, muhandislik, transport va qishloq xo‘jaligida jiddiy o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda. Shu bois ilm-fan va ishlab chiqarish sohalarida hamkorligiga intilish zarur.

Ilm-fanning ishlab chiqarish bilan integratsiyasi yangi texnalogiyalarni ishlab chiqarishga kiritish va raqobatbardosh mahsulotlar yaratish imkonini beradi. Innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash va ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish esa milliy iqtisodiyotda yuqori texnologiyalarning ulushini oshiradi. Shu bilan birga, davlat ilmiy tadqiqotlarga sarmoya kiritishni kuchaytirishi natijasida o‘z mamlakatida yangi texnologiyalar va ularni eksport qilish orqali iqtisodiy rivojlanishga erishadi.[1]

Ta’lim tizimi jamiyatning intellektual va madaniy rivojlanishining asosi bo‘lib, u yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda muhim o‘rin tutadi. Texnologik taraqqiyot ortidan zamonaviy ta’lim tizimining ham uzluksiz yangilanib borishi lozim. Texnik va kasbiy ta’lim tizimining ishlab chiqarish bilan integratsiyasi esa amaliyotga asoslangan bilimlarni rivojlantiradi va yosh avlodni texnik sohalarda yanada yaqinlashtiradi. Masalan, ta’lim muassasalarida texnik fanlarga qaratilgan dasturlarni joriy etish, ilmiy laboratoriyalar va texnologik markazlar tashkil etish orqali talabalar amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtira oladi. Bunday ta’lim nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki iqtisodiy o‘sish uchun ham muhim. Chunki bugungi kunda ish beruvchilar faqatgina nazariy bilimga ega mutaxassislarni emas, balki amaliy bilim va ko‘nikmalar bilan boyitilgan xodimlarni izlaydi.

Ishlab chiqarish-jamiyat iqtisodiyotining asosiy sohasidir. Zamonaviy ishlab chiqarish jarayonlariga texnologiyalarni tatbiq etish resurslarni tejash, mahsulot sifatini oshirish va ishlab chiqarish vaqtini qisqartirish imkonini beradi. Ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish natijasida esa, korxonalar raqobatbardoshligini oshirib, xalqaro bozorlarda o‘z o‘rnini mustahkamlashi mumkin.[2]

Shu bilan birga, ishlab chiqarishda ilmiy tadqiqotlar va innovatsion texnologiyalarni qo‘llash mahsulotlar sifatini oshirish va yangi ishlanmalarni joriy etishga olib keladi. Masalan, bugungi kunda robototexnika, sun’iy intellekt va avtomatlashtirilgan tizimlar ishlab chiqarish jarayonlarining muhim qismiga aylangan. Bu texnologiyalar nafaqat ishlab chiqarishni samarali qiladi, balki inson resurslarini boshqa yuqori qiymatli jarayonlarga yo‘naltirish imkonini beradi.

Moliyaviy savodxonlik – bu shaxslar va tashkilotlar uchun moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish, to‘g‘ri qarorlar qabul qilish va moliyaviy xavflarni boshqarish imkoniyatidir. Moliyaviy savodxonlik nafaqat iqtisodiy rivojlanish, balki shaxsiy farovonlik va iqtisodiy mustaqillik uchun ham katta ahamiyatga ega.

Bugungi kunda ta’lim muassasalarida moliyaviy savodxonlik bo‘yicha kurslar o‘tkazilishi, yoshlarning moliyaviy bilim va ko‘nikmani oshirish uchun zarur. Bu orqali yoshlar o‘z mablag‘larini boshqarishni, tejashni va investitsiya qilishni o‘rganadi.[3] Korporativ darajada moliyaviy savodxonlik esa samarali byudjetni boshqarish, investitsiya loyihalarini baholash va moliyaviy strategiyalarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Ilm-fan, ta’lim, ishlab chiqarish va moliyaviy savodxonlikning integratsiyasi ijobiy natijalarni keltirib chiqaradi:

1. Iqtisodiy o‘sish va barqarorlik: Ushbu sohalarning bir-biri bilan uyg‘unlashtirilishi mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta’minlaydi. Ilmiy izlanish va yangi texnologiyalar raqobatbardosh mahsulotlarni yaratishda yordam beradi.

2. Ish o‘rinlari yaratish: Yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish natijasida yangi ish o‘rinlari yaratish mumkin. Bu esa aholi bandligini oshirish va iqtisodiy farovonlikka erishish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Xalqaro raqobatbardoshlik: Ilm-fan, ta’lim va ishlab chiqarishni o‘zaro bog‘lash orqali mamlakat xalqaro bozorda yuqori o‘rinlarni egallashi mumkin. Bu esa milliy mahsulotlarning eksportini oshirish va valyuta daromadlarini ko‘paytirish imkoniyatini beradi.

4. Shaxsiy va oilaviy farovonlik: Moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish orqali jamiyatda o‘z moliyaviy resurslarini to‘g‘ri boshqaradigan, kelajakda barqaror va iqtisodiy mustaqil shaxslar yetishtirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, ilm-fan, ta’lim, ishlab chiqarish va moliyaviy savodxonlik integratsiyasi zamonaviy jamiyatning iqtisodiy va intellectual rivojlanishi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu inegratsiya orqali yangi ishlanmalar yaratilib, ishlab chiqarish jarayonlari samaradorligi oshadi, shaxsiy va jamoaviy darajada farovonlik ta’minlanadi. Shu sababli, davlat va xususiy sektor vakillari ushbu to‘rt omilning hamkorligini ta’minlash yo‘lida izchil ishlashi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Ilm-fan va ta’lim integratsiyasi. Xayrullayeva M. (2019). Ta’lim tizimida ilm-fan integratsiyasi va zamonaviy yondashuvlar.” Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.

2. Ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi bog‘liqlik. Madorov B. va Qo‘chqorov O. (2021). O‘zbekistonda ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasi: samaradorlik va imkoniyatlar.” Iqtisodiy tadqiqotlar jurnali.

3. Savodxonlik va ilm-fan integratsiyasi. Ozbekova D. (2020). “Savodxonlik darajasini oshirishda ilm-fan va ta’limning o‘rni.” Toshkent: Fan va texnologiyalar nashriyoti.

ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ ПОВЫШЕНИЯ ЗАНЯТОСТИ НАСЕЛЕНИЯ

Ташпулатов Айбек Умарович
Ферганский политехнический институт, DSc, доцент кафедры
“Бухгалтерский учет и аудит”
a.tashpulatov@ferpi.uz

Аннотация. В условиях трансформации экономики уровень эффективной организации и развития рынка труда в регионах страны во многом зависит от квалификации, профессиональных и квалификационных навыков рабочей силы, оплаты труда, потенциала персонала и масштабов их эффективного использования. В статье рассмотрены вопросы эффективного использования экономических механизмов и инструментов с целью достижения равновесного рынка труда с учетом современных требований к подготовке кадров в контексте развития науки и техники, профессиональных и квалификационных изменений в структуре рабочей силе, а также применения новых инновационных подходов и действенных экономических рычагов.